



SALOMLASHISHGA OID FATVOLAR

Mashrabjon ABDURAZZOQXO‘JAEV

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti 4-kurs talabasi

e-mail:abdurazzaqovmashrabxon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Salomlashishga oid fatvolar” turkumidagi salomlashish barcha elat va millatlar orasida borligi va undan kelib chiqadigan ezgu amallarni keltirib o‘tdim.

Kalit so‘zlar: ahling, bayt vojib, sunnat.

Haqiqatan, har bir ota-ona farzandiga tarbiya-odob berar ekan, eng avvalo salomlashishni o‘rgatadi. Jahonda odobning bu jihatiga e‘tibor bermaydigan biror millat va xalq yo‘q. Bejizga dono xalqimiz “Gapni boshi – kalom, odob boshi – salom” demagan. Har bir qavm, har bir xalq, har bir millatning o‘ziga xos salomlashish uslubi bor. Salomlashish uslubi va iboralari hamda odatlari o‘sha xalqning qanday xalq ekanidan darak berib turadi. Islomdagi salomlashish eng go‘zal va eng ma‘noli salomlashishdir.

Salomning lug‘aviy ma‘nosi: tinchlik, xavfsizlik, ko‘rishish va salomlashish ma‘nosidadir¹. “Assalamu alaykum”ning istilohiy ma‘nosi: “sizga tinchlik-omonlik bo‘lsin”² degan ma‘noda. “Va alaykum assalom”ning istilohiy ma‘nosi: “sizga ham tinchlik-omonlik bo‘lsin” degan ma‘noda.

Salomlashish islomning shiorlaridandir. Shu bilan birga Payg‘ambarimiz alayhissalom buyurgan sunnat amallardan biri hisoblanadi. Bunga dalil:

عن أبي هريرة رضي الله عنه قال: قال رسول الله ﷺ: "لا تدخلون الجنة حتى تؤمنوا، ولا تؤمنوا حتى تحابوا، ألا

¹ A. Madvaliyev. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. (nashr etilgan sana ko‘rsatilmagan) 431 b.

² Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. “Ijtimoiy odoblar” – T. : “Hilol Nashr”, 2013. 49 b.



أدلكم على شيء إذا فعلتموه تحاببتم؟ أفشوا السلام بينكم" (رواه مسلم)³

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rosululloh alayhissalom shunday deganlar: **"Jannatga kirolmaysiz toki imon keltirmaguningizgacha, (komil) mo'min bo'lolmaysiz toki o'zaro muhabbatli bo'lmaguningizgacha. Sizlarga bir narsani o'rgataymi, agar shuni qilsangiz, o'zaro muhabbatli bo'lasiz, oralaringizda salomni yoying!"**⁴. (Muslim rivoyati)

Bu hadisi sharifda ham ko'rinib turibdiki, salom berish va unga javob qaytarish insonlar o'rtasida do'stlik, ahllik va mehr-oqibat rishtalari mustahkam bo'lishiga sabab bo'lar ekan.

Birinchi bo'lib salom berish sunnat bo'lsa, salomga javob (aliki) qaytarish vojib amal hisoblanadi. Salomga alik olmagan odam gunohkor bo'ladi.⁵ Bu haqda Qur'oni Karimda shunday deyiladi:

وَإِذَا حُيِّتُمْ بِتَحِيَّةٍ فَحَيُّوا بِأَحْسَنَ مِنْهَا أَوْ رُدُّوها

"Qachonki sizga bir salomlashish ila salom berilsa, siz undan yaxshiroq alik oling yoki xuddi o'zidek javob bering"⁶ (Niso surasi, 86-oyat)

Ushbu oyati karimada salomlashish juda muhim, ahamiyatli ish ekani ko'rinib turibdi. Salom bergan insonga undanda yaxshiroq yoki hech bo'lmasa o'shanday javob qaytarib qo'yishga amr etilmoqda.

Har bir kishi o'z xonadoniga kirganda oila a'zolariga salom berishi ham sunnat amallardandir.

روى الترمذي عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ قَالَ : قَالَ لِي رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : " يَا بُنَيَّ إِذَا دَخَلْتَ عَلَى أَهْلِكَ فَسَلِّمْ ، يَكُنْ بَرَكَةً عَلَيْكَ وَعَلَى أَهْلِ بَيْتِكَ" ⁷

³ Muslim ibn Hajjoj. Sahih Muslim. Dor at-Toyyiba. Riyoz. 2006 . 44 b. 93- hadis.

⁴ Otin silsila: sahih Muslim, 1- juz - Toshkent: "hilol – nashr", 2019. 187 b. 106 - hadis

⁵ Muhammad Taqiy Usmoniy. Yengil amallar. Toshkent: "Hilol –nashr", 2021. 53 b.

⁶ Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol" 1- juz. – T. : "Hilol Nashr", 2017. 566 b. 86 – oyat.

⁷ Abu Iyso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. "Sunani Termiziy". Muassasa ar- risola Nashirun. 2022 . 950 b. 2894-hadis. Hasan sahih g`arib.



Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Men uchun Rosululloh alayhissalom: **“Ey! O‘g‘ilcham agar uyga kiradigan bo‘lsang ahlingga salom bergin. Shunda senga va ahlingga barakot bo‘ladi”.** (Termiziy rivoyati)⁸

Yana boshqa hadisda Rosululloh alayhissalom salom berilgan uyga shayton kirmasligini aytganlar.

عن جابر بن عبد الله، عن النبي ﷺ قال: **“إذا دخلتم بيوتكم، فسلموا على أهلها؛ فإن الشيطان إذا سلم أحدكم لم يدخل بيته”**⁹

Jobir (roziyallohu anhu) Nabiy (alayhissalom)dan rivoyat qilib: “Agar uyingizga kirsalaringiz uy ahillariga salom beringlar. Batahqiq, agar sizlardan biringiz (uyiga kirganda) salom bersa uning uyiga shayton kirolmaydi” dedilar.

Salom berish odoblaridan yana biri shundaki, kishi hech kim bo‘lmagan xona yoki uyga kirishida ham “Assalomu alaykum ahlal bayt va rahmatullohi va barokotuhu” deb salom bermog‘i maqsadga muvofiqdir. Bu holatda sizning salomingizga farishtalar alik olishadi.

Bunga Qur’oni Karimdan dalil:

قال الله تعالى: **فَإِذَا دَخَلْتُمْ بُيُوتًا فَسَلِّمُوا عَلَى أَنْفُسِكُمْ تَحِيَّةٌ مِّنْ عِنْدِ اللَّهِ مُبَارَكَةٌ طَيِّبَةٌ كَذَلِكَ يُبَيِّنُ اللَّهُ لَكُمْ الْآيَاتِ لَعَلَّكُمْ تَعْقِلُونَ (النور 61)**

“Uylarga kirganchogingizda o‘zlaringizga Allohdan bo‘lgan pokiza va muborak salom bering”¹⁰. (Nur sursi 61- oyat)

قال مجاهد : **إذا دخلت المسجد فقل : "السلام على رسول الله، وإذا دخلت على أهلك فسلم عليهم ، وإذا دخلت بيتا ليس فيه أحد فقل : السلام علينا وعلى عباد الله الصالحين" . (تفسير ابن كثير)¹¹**

⁸Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 37 - juz. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2019. 41 b. 5233- hadis.

⁹ Muhammad ibn Ja’far Xoroitiy. “Makarimul ahloq ma’oliha va Mahmudi taroiqiha” Dorul afoq al-arobiyya. 1999. 274 b. 843- hadis.

¹⁰ Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol” 4 - juz. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2017. 181 b. 61- oyat.

¹¹ Abu Fidai` Ismail ibn Kasir al- Qurashiy ad- Damashiqiy. “Tafsir ibn Kasir”. Darul Ma’orif Bayrut Lubnan. 1987. Ikkinchi nashr. 318 b.



Mujohid (rohimahulloh): “Agar masjidga kirsang Rosulullohga salom bo‘lsin, ahlinga kirsang ularga salom ber va biror odam yo‘q uyga kirsang bizga va Allohning solih bandalariga salom bo‘lsin deb aytgin”¹² dedilar. (*Tafsir ibn Kasir*)

Salom berish to‘g‘risida aytib o‘tilgan misollarga quyida “Fatvoi Sirojiya” asarida qanday fatvo berilganini ko‘rib chiqiladi.

Mo‘min kishi salom beradigan bo‘lsa, ko‘plik shaklda berishligi lozim. Salomga javob qaytarish ham shu kabidir. Sababi mo‘min yolg‘iz holda bo‘lmaydi.¹³

Kishi o‘qiyotgan odamga salom bersa (“Fatvoi Sirojiya” kitobining birinchi, uchunchi, to‘rinchi va beshinchi nashrlarda “yakka holda o‘qib o‘tirgan kishiga salom bersa” deb kelgan.) u salom bergan kishiga javob qaytarishi vojib bo‘ladi. Agar kishi salom bersa, salomga javob qaytarsa-yu salom bergan kishi javobini eshitmasa, farz soqit bo‘lmayd. (“Fatvoi Sirojiya” kitobining birinchi, uchunchi, to‘rinchi nashrlarda shu kabi yozilgan. Shu to‘g‘risidir. Beshinchi nashrda “soqit bo‘ladi” deb kelgan.)

Agar salom bergan kishi kar bo‘lsa, unga javob qaytaruvchi kishiga lablarini harakatlantirib qaytarish lozim. Agar kishi bir jamoa kishilarga salom bersa unga o‘sha jamoadan bir kishi javob qaytarsa, o‘sha joydagi qolgan kishilardan javob qaytarish soqit bo‘ladi. Chunki jamoaga salom berilsa, o‘sha jamoaga javob qaytarish farzi kifoyadir.

Abulfath Muhammad ibn Mahmud Astarushi: “Garchi tamiz (aqlini taniydigan) yoshda bo‘lsa ham shunday. Chunki jamoadagi kishilarga javob qaytarish farzi kifoyadir. Farzi kifoya aqlini tanigan boladan ham soqit bo‘ladi”¹⁴

Uyga kelib tilanuvchi kishi salom bersa, unga javob qaytarish vojib emas.¹⁵

¹² Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol” 4 - juz. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2017. 181 b. 61- oyat.

¹³ Har bir insonni kuzatib turuvchi va amallarini yozib turuvchi farishtalar boladi Qur‘nu karimda “Holbuki, sizning ustingizdan kuzatib turuvchilar bordur. Ular hurmatli yozib turguvchilardir”. Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol” 6 - juz. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2017. 407 b. Infitor surasi, 10- 11- oyatlat

¹⁴ Abulfath Muhammad ibn Mahmud Astarushi “Jome’ ahkamu-s-sag‘ir” kitobi 1-juz. Qohira. Dorul al-Fazila. 1994. 149 b.



Kishi masjidga kirsam, o'sha joyda namoz o'qimayotganlar bo'lsa, ularga salom beradi. Sayyidul imom Abulqosim rohimahulloh shu masalaga: masjidga kirgan kishi shu holatda salomni tark qilsa, u kishi sunnatni tark qilgan bo'lmaydi. "Odobul qoziy"da bunga ishora qilgan.

Balog'atga yetgan qizga salom berish makruhdur. Sabab bu ishda balog'atga yetgan qizga fitna bor. Ammo, bolog'atga yetgan qiz ayollar jamoasida bo'lib fitnadan omonda bo'lsa unga salom berishni zarari yo'q. Asmo bintu Yazid al- Ansoriy roziyallohu anhoan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam O'zinga tengdosh qizlar bilan o'tirgan edim oldimdan Nabiy sollallohu alayhi vasallam o'tdilar. Ul zot bizga salom berdilar....".¹⁶

Ayol kishi aksa ursa, erkak kishi salomga ham va aksani eshitgan bo'lsa unga ham, javob qaytaradi. Agar aksa urgan balog'atga yetgan qiz bo'lsa, uga erkak kishi ichida javob qaytaradi.

Agar aksa uruvchi uch marta aksa ursa, uch martasida ham alhamdulillah desa, har biriga javob qaytrish vojib, uchtdan keyin javob qaytarish ixtiyoriydir.

Ahli kitoblarga zaruratsiz birinchi bo'lib salom berish makruhdur. Ularni salomiga javob qaytarishni zarari yo'q. Javob qaytaruvchi (va alyka)ga ziyoda qilmaydi.¹⁷

Agar kishi ma'siyat qilayotgan qavmni oldidan o'tsa, ular unda bo'lib turgan ma'siyatdan qaytarish maqsadida ularga salom beradi. Hammomdagi kishiga salom berilmaydi.

Yurgan odam o'tirganga, ulovdagi kishi piyodaga, va yoshi kichkina kattaga salom beradi.

¹⁵ Tilanuvchi kishining salomi salomlashish (sunnat ko'ra salomlashish) salomi emas. Balki u ulardan s'orovchi ekaniga ishora qilib qo'yishdir. Burhoniddin Abu Maoliy Mahmud ibn Ahmad ibn Abdulaziz ibn Mazata al- Buxoriy al-Hanafiy. "Muhiyту-l-Burhon" 5-juz. Bayrut. Dor al- Kutub al- Ilmiyya. 325 b.

¹⁶ Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf. "Al-adab al-mufrad" 4 - juz. – Toshkent: "Hilol Nashr", 2019. 90 b. 1048-hadis

¹⁷ Sirojiddin abu Muhammad Aliy ibn Usmon al-O'shiy. "Fatvoi Sirojiya" – Karachi. Maktaba Zamzam. 2019. 318 b.



Kishi Alloh taoloni ismini eshitganda “subhanalloh” yoki “tabarokalloh” va shunga o‘shash maqtovli gap aytadi.

Agar Nabiyy (alayhissalom)ni ismlarini eshitsa, “sollallohu alayhi vasallam” deydi. U zot alayhissalomni ismlarini bir majlisda bir necha bor eshitsa, sollallohu alayhi va alihi vasallam desa, shu kifoyadir. “Fatvoi Sirojiya” kitobining birinchi va uchunchi nashrida shu kabi kelgan. To‘rtinchi va beshinchi nashrlarda “bir marta salovot” aytadi deb kelgan. Bu gap “bir marta sollallohu alayhi vasallam” deyishdan badal (o‘rinbosar) bo‘ladi. Ikkala gap ham bir ma‘nodadir

Abu Hanifa, Molik, Savriy rohimahullohlar va boshqalar: “Kishi umri davomida bir marotaba Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga salovot aytish farzdir” deyishgan. Hatto, ba’zilar “shunga ijmoqilingan”. deb naql qilishgan. Bulardan boshqalar esa, ikki gap aytishgan. Tahoviy, Halimiy, Sayx Isfaroniy rohimahullohlar va shofe‘iylardan bir jamoa: “kishi Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning ismlarini zikr qilsa, yoki o‘zidan boshqadan Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning ismlarini zikr qilganini har qachon eshitsa, har biriga salovot aytish vojib” deyishgan. Ibn Arobiy va Zamahshariy rohimahullohlar: “ehtiyotiy shu gap” deyishgan. Albatta musannif aytgan gap “garchi, bir majlisda Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning ismlarini takror keltirilsa, bir marta salovot aytishi joiz” deganidir. Avzoiy va Karhiy rohimahullohlar: “musannif zikr qilganlaridan maqsad bir majlisda Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning ismlarini takror keltirilsa, o‘sha majlisda bir marta salovot aytish vojib, bir martadan keyin mustahabdir. Lekin avvalgisi afzal va ehtiyotroqdir, deyishgan.

Bir rivoyatda salomni birinchi boshlovchiga savobi ko‘p bo‘ladi deyilgan. Chunki, “Birinchi boshlovchi fazilatlidir” deb hadisda kelgandek salomni birinchi boshladi. Va o‘zini katta olishdan oqladi. Ammo, javob qaytarishga kelsak, o‘ziga vojib bo‘lgan ishni ado qildi. Salomni boshlovchi yaxshilikdan boshladi. boshqa qavlda salomga javob



qaytarishga savobi va fazilati ko'p bo'ladi deyilgan. Chunki salomga javob qaytarish farzdir.¹⁸

Xulosa shuki, insonlarning bir-birlari bilan uchrashganida chin ko'ngildan, ochiq chehra bilan salomlashishishi o'zbek xalqining eng yaxshi odatlaridandir. Salomlashish hukm va odoblarini yaxshi bilib, unga amal qilishlik odamlar o'rtasida insonning martabasini ko'taradi, ular orasida mehr-muhabbat yoyilishiga sabab bo'ladi. Va u insonlar orasida adovatni yo'qolishiga, yaxshilik joriy bo'lishiga xizmat qiladi. O'zbek xalqining salomlashish kabi fazilatli odatlari farzandlar ongida milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishga, ularning millat, uning qadriyatlariga haqiqiy sadoqatli insonlar bo'lib tarbiya topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddin O'shiy. "Fatvoi Sirojiya".
2. Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz. "Muhiytu-l-Burhon"
3. Old.muslim.uz

¹⁸ Sirojiddin abu Muhammad Aliy ibn Usmon al-O'shiy. "Fatvoi Sirojiya" – karachi. Maktaba Zamzam. 2019. 319 b.